



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 IYUN
№29**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
15-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
29-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-15**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
29-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-15**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 29-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 33 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

1. Muratova Dilnavoz O'ktamovna UMUMTA'LIM MAKTABLARINING MUSIQA DARSLARIDA "MUSIQA TINGLASH" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	7
2. Yarashev Jo'rabek To'rayevich MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING OVOZINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	9
3. Базарбаева Айнура Бахтияровна ВЛИЯНИЕ МУЗЫКИ НА ОРГАНИЗМ ЧЕЛОВЕКА	11
4. Abdullaeva Arofat Rustamovna MUSIQANI SHAXS RUHIYATIGA TA'SIRINING IJTIMOYIY -PSIXOLOGIK OMILLARI.....	13
5. Alayeva Zarnigor Mahmudovna MUSIQA TA'LIMIDA BUXORO FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISH MAZMUNI.....	15
6. Muratova Dilnavoz O'ktamovna O'QITUVCHINING MUSIQA DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH PEDAGOGIK MAHORATI.....	17
7. Djuhonova Nohida Hayotjonovna SHAXSNI MA'NAVIY BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA MUSIQANING TUTGAN O'RNI	19
8. Закирова Мухаббат Сабировна МУСИҚАНИ ИНСОН ПСИХОЛОГИЯСИГА ТАЪСИРИ.....	21
9. Azamat Fayzullayev ARAB MILLIY MUSIQA ASBOBLARI.....	23
10. Begliyev Reymbergen, Begliyev Sanjar Reymbergenovich VENGRIYADA MUSIQA TA'LIMI TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	25
11. Haydarova Sarvinoz Zuhriddinovna THE ROLE OF MUSIC AND SONGS IN THE STUDY OF ENGLISH	27
12. A student Nurbek Otakhonov MUSIC AND LIFE	29
13. Зуева Арина Викторовна СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖНОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ, ИХ СУЩНОСТЬ И СПЕЦИФИКА	31



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING MUSIQA DARSLARIDA "MUSIQA TINGLASH" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Muratova Dilnavoz O'ktamovna

Buxoro davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti Musiqa
ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada musiqa fani o'qituvchisining musiqa tinglash faoliyati jarayonida samarali metodlarini tashkil etishi, o'quvchilarning shaxs kamolotini rivojlantirishga yo'naltira olishi, ularning musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, hamda yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirish to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: musiqa tinglash, metod, mahorat, san'at, musiqa, madaniyat, shaxs, musiqiy savodxonlik, nafosat, badiiy did, milliy g'urur.

Bugungi kunda yosh avlodga har tomonlama puxta bilim berish, yoshlarni vatanimizning yetuk kishilari qilib tarbiyalashda maktab muhim rol o'ynaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishini farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"¹ deb ta'kidlagan. Darhaqiqat, musiqa o'qituvchisi o'quvchilarga bilim berish, uni shaxs sifatida kamol topib voyaga yetishiga xizmat qilishi bilan birga ularni musiqa olamiga olib kiradi, go'zallikka bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi. Chunki, musiqa o'z tabiatiga ko'ra, inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosatga olib kirish va axloqiy, g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir.

Musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad – o'quvchilarning musiqa uquvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va shu bilan birga nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari muhim. Ikkinchi bosqichda esa musiqa savodi, ya'ni bevosita musiqa tovushlarining ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitib boradi. Musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan birga uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Qo'shiq kuylash usuli, dasturdagi musiqiy asarlar, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan ifodalanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok eta olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik hamda harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi, qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqaviy uquv qobiliyati asosan quyidagi musiqa uquv turlaridan iborat bo'ladi:

- musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati,
- tembr uquvi (musiqa tovushlarining bir biridan farq qiladigan,
- o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati),
- ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi.

¹ I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Ma'naviyat nashriyoti Toshkent 2016 61-bet.



Mashg'ulotning musiqa tinglash faoliyati oldida quyidagi vazifalar turadi:

1) o'quvchilarni o'z idrokiga mos xalq mumtoz va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish;

2) o'quvchilarning musiqani idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirib borish.

Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berishni o'rgatadigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan asarlariga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning diqqati uncha barqaror bo'lmaganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichik musiqa asarlarini idrok etishga qodir bo'ladilar. Ular ayniqsa, kichik qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar. Chunki, so'z va ohang birligi musiqa mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, musiqa o'qituvchisi qo'shiq kuylaganda uning tanish ovozi va ifodalash intonatsiya mimikasi va ishoralari o'quvchilarni maftun etadi. Shu vaqtda o'quvchilarda hosil bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish holatlarini kuzarish mumkin bo'ladi. Ammo bu holatlar tez uyg'onib, tez so'nadi. O'quvchilarda diqqat e'tiborning bir muncha emotsional turg'unligi vujudga keladi. Ular raqs tipidagi kuylarni jonli, ba'zan jo'shqin holatda idrok etadilar. Cholg'u kuylari xarakteri va badiiy mazmuni haqida bolalarga tushuncha berilsa, ular asarni yaxshi idrok etadilar. Asarni 2 – 3 mashg'ulot davomida takroran tinglash muhim. Chunki, har bir musiqa asarini tinglashda o'quvchi uchun asarning yangi – yangi qirralari namoyon bo'ladi va asarga nisbatan ularning muhabbati oshib boradi. O'quvchilar o'z yoshiga muvofiq musiqa asarini to'la idrok etishga qodir bo'ladi. Maktabda olingan bilim, malaka, ko'nikma, musiqa turlari va uning xarakteri farqiga borishga yordam beradi. Shunday qilib, dasturda ko'zda tutilgan va o'quvchining musiqa madaniyati rivojlanishida kelajakda asosiy rol o'ynaydigan uch faktor amalga oshadi.

1. Musiqaga qiziqish musiqa asarlarini ishtiyoq bilan tinglash va ularni eslash, olingan taassurotlarni o'ylash.

2. Musiqa tinglashga turg'un diqqat-e'tiborni va tinglash madaniyati boshlang'ich elementlarining shakllanishi.

3. Musiqiy didining shakllanishi, musiqa asarlariga badiiy baho bera olish.

Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy uslubiy vazifalari:

1. Musiqa tinglash orqali bolalarda his-tuyg'ularini rivojlantirish.

2. Boshlang'ich musiqa tinglash tushunchalarini rivojlantirish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'rta umumta'lim maktablarida musiqa fani o'qituvchisining musiqa tinglash faoliyatini amalga oshirish jarayonida samarali metodlarini tashkil etishi, o'quvchilarning shaxs kamolotini rivojlantirishga yo'naltira olishi, ularning musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, hamda yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Ma'naviyat nashriyoti Toshkent 2016.

2. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of "Buxor" Tune // Eastern European Scientific Journal. 2019, pp. 118-122.

3. Миршоев Улугбек Музаффарович УЗБЕКСКИЙ МУЗЫКАЛЬНЫЙ ФОЛЬКЛОР И ЕГО ЖАНРОВАЯ СТРУКТУРА // Проблемы науки. 2021. №1 (60). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uzbekskiy-muzykalnyy-folklor-i-ego-zhanrovaya-struktura> (дата обращения: 11.05.2021).

4. Журабек Тураевич Ярашев МУЗЫКАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalnaya-terapiya> (дата обращения: 11.05.2021).

5. Dilnavoz O'Ktamonova Muratova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqa-madaniyati-darslarini-tashkil-etishda-o-qituvchining-pedagogik-mahorati> (дата обращения: 11.05.2021).



MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING OVOZINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Yarashev Jo'rabek To'rayevich

Buxoro davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası

katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha doktori (PhD)

beki2009jora@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada musiqa o'qituvchisi musiqa tinglash jarayonida samarali texnikani qanday tashkil qilishi, o'quvchilarni shaxsni rivojlantirishga yo'naltirish, ularning musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, shuningdek, yoshlar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilganligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: musiqa tinglash, usul, mahorat, san'at, musiqa, madaniyat, shaxs, musiqiy savodxonlik, nafislik, badiiy did, milliy g'urur.

Kirish: Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar ovozini tarbiyalash vokal dinamik sezgini rivojlantirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bunda har bir ijrochining o'z ovozi ma'lum balandlikda jaranglashi, eshitish hamda boshqa kuylovchilarning ovozi ham eshitish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

O'quvchilar ovozi rivojlantirish va tarbiyalashda talaffuz yoxud diksiyaning ham roli kattadir. Musiqa madaniyati darsida qo'shiqni ijro etuvchilar uchun asar mazmunini tushunish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda ijro etiladigan asar tinglovchilarga ham aniq yetib borishi zarur. Shuning uchun ham darsda qo'shiqni ijro etuvchi o'quvchilar asar matnini aniq talaffuz qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar mungli, sho'x, marsh, raqs, tez va ravon aytiladigan qo'shiqlarni bir-biridan farq qilishini o'rginish lozim. O'quvchilar tovushlar cho'zimi va balandligi haqida dastlabki tushunchaga ega bo'lmoqlari hamda nota yozuvini o'rginishga kirishishlari muhim hisoblanadi. Dastlab o'quvchilar "baland" va "past" tovushlar to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilar diqqatini kuylanadigan qo'shiqda ovozi goh ko'tarib borishi goh pastlanuvchi, ba'zida esa bir xil balandlikda saqlanib turish holatlariga jalb qilish kerak.

Buning uchun quyidagi metodik usuldan foydalanadi:

➤ O'qituvchi qo'llarini yuqoriga yoki pastga harakatlantirish yo'li bilan tovushlar balandligini ko'rsatadi;

➤ O'quvchilarga qo'shiqdagi mavjud bo'lgan tovushlarning birin-ketin yuqoriga yoki pastga kuylash ham mumkinligini tushuntirish maqsadida tovushqator zinapoya shaklida chizib ko'rsatiladi.

O'quvchilarni tovushlarning xilma-xil cho'zimlari bilan tanishtirish lozim. Cho'zimlarning hammasi birdan ko'tarilmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari qo'shiq kuylaylash jarayonida uchraydigan chorak va nimchorak notlari o'rgatilib boriladi. O'quvchilarning "chorak" yoki "nimchorak" nota cho'zimlarini nomlarini tushunish qiyin bo'lganligi sababli bu so'zlarni shartli ravishda "uzun" va "qisqa" deb tushuntirish mumkin. Birinchi yarim yillikda nota yozuvini o'rginishga tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkaziladi. Ikkinchi yarim yillikda o'quvchilar birinchi oktavaning do tovushidan boshlab, ikkinchi oktavaning do tovushigacha bo'lgan oraliqdagi notalarni nota yo'llariga yozishni hamda ularning mohiyatini bilib oladilar. Shu bilan bir qatorda skripka (sol) hamda bas (fa) kalitlari bilan tanishadilar. Tovushlar balandligi va kalit belgilarini ko'rsatishdan oldin beshta parallel nota yo'li ko'rsatib o'tiladi. Notalarning mana shu parallel chiziqlar ustiga va oralig'iga yozilishi, lozim bo'lganda esa nota yo'lining ostidan va ustidan beshtadan qo'shimcha chiziqlar chizilishi tushuntirildi. So'ngra nota yo'lga skripka va bas kalitlari yozib ko'rsatiladi.

Mana shu xildagi mashg'ulotlardan keyin tovushqatorning biror bo'lagi nota yozuviga qarab kuylanadi.

O'quv yilining oxirida o'quvchilar nota yozuvini qo'llanish va qo'shiqlarni tushunib kuylash malakasini hosil qila boshlaydilar. Ularda musiqani tinglash va undan ta'sirlanish qobiliyatlari rivojlana boradi. Shuni esda saqlash lozimki kelajakdagi musiqa tarbiyasining barcha asoslari



mana shu boshlang'ich sinf mashg'ulotlaridan boshlanadi hamda o'quvchilarning musiqaviy bilim darajasi kengayadi. Qo'shiq kuylash uslublari – notaga qarab kuylash, tovushqator bo'lagini kuylash, birinchi oktavaning do tovushidan ikkinchi oktavaning do tovushigacha bo'lgan tovushqatorni o'z ichiga olgan qo'shiqlarni kuylash singari birinchi sinf mashg'ulotlarini ikkinchi sinfda davom etaveradi. Qo'shiqlarni o'rgatish jarayonida dastlab notalarining nomlari aytiladi, so'ngra ular kuylanadi.

Musiqqa madaniyati darslarida o'quvchilar musiqaning ifoda vositalari to'g'risida tushunchaga ega bo'lalilar. O'qituvchi har bir musiqqa darslarida kuylanadigan qo'shiqlarning mazmuni, xarakteri hamda xilma-xil ifoda vositalarini o'quvchilarga anglatishi lozim.

Musiqqa darslarida o'qituvchi o'quvchilarga lad haqida ma'lumot berib boradi. O'quvchilar dastlab ladning eng oddiy elementlari, so'ngra ularning tuzilishi, tarkibi, bosqichlari, xarakteri kabi ma'lumotlarga ega bo'lalilar. Ladning eng oddiy elementlaridan biri biror bir qo'shiqning tugallangan yoki tugallanmaganligidir. So'ngra qo'shiq kuyning tugallanishida muhim rol o'ynaydigan tovush ya'ni tonika haqida tushuncha beriladi.

O'quvchilar altersiya belgilari – diez va bemol bilan tanishadilar. Qo'shiqlarni notaga qarab o'rganish va kuylash mashg'ulotlari ko'proq amalga oshiriladi. Solfejio qilib kuylanadigan mashq va qo'shiqlar aksariyat hollarda tayyorlanmasdan turib to'g'ridan-to'g'ri notaga qarab aytilishi lozim.

Yuqorida bayon etilgan talablar faqat mashq kuylashda emas, balki asarlar o'rgatish jarayonida ham qo'llanilishi talabga muvofiqdir. Shu talablar asosida maxsus vokal-xor mashqlari doimiy ravishda olib borilsa, o'quvchilarning kuylash malakalari o'sib borishi va ovoz apparatining yildan-yilga rivojlanib borishi mumkin. Musiqqa darsida o'quvchilarning ovozini rivojlantirishda vokal-xor mashqlarining yoki kuyning pastdan yuqoriga tomon harakati yoki yuqoridan pastga tomon harakatida kuylash ham foydalidir. Chunki, bu mashqlar o'quvchilar ovoz diapazonini rivojlantiradi va o'stiradi. Musiqqa darslari jarayonida o'quvchilar ovozini rivojlantirish va tarbiyalashda vokal-xor mashqlaridan tashqari qo'shiqlar muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Ma'naviyat nashriyoti Toshkent 2016.
2. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of "Buchor" Tune // Eastern European Scientific Journal. 2019, pp. 118-122.
3. Миршоев Улугбек Музаффарович УЗБЕКСКИЙ МУЗЫКАЛЬНЫЙ ФОЛЬКЛОР И ЕГО ЖАНРОВАЯ СТРУКТУРА // Проблемы науки. 2021. №1 (60). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uzbekskiy-muzykalnyy-folklor-i-ego-zhanrovaya-struktura>.
4. Журабек Тураевич Ярашев МУЗЫКАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalnaya-terapiya>.
5. Dilnavoz O'Ktarnova Muratova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqqa-madaniyati-darslarini-tashkil-etishda-o-qituvchining-pedagogik-mahorati>.



ВЛИЯНИЕ МУЗЫКИ НА ОРГАНИЗМ ЧЕЛОВЕКА

Базарбаева Айнура Бахтияровна
студентка Нукусского Государственного
Педагогического Института имени Ажинияза
aynurabazarbaeva001@gmail.com

Аннотация: в статье подробно рассматриваются аспекты влияния музыки на человеческий организм и как воспринимает их, ведь многие не задумываются о её влиянии на нашу психику и какие последствия могут принести, если слушать не соответствующие нам песни.

Ключевые слова: музыка, сила музыки, негативная музыка, мозг, композитор, IQ.

Музыка в настоящее время слушают все, абсолютно. Музыка присутствует во всех сферах нашей жизни. Наши духовные ритуалы основаны на песнях, дети учат алфавит с помощью песен, а торговые центры и кафе, которые мы посещаем в свободное время, редко остаются безмолвными. Но насколько эта вездесущая вещь может повлиять на нас - и на то, как мы действуем и чувствуем? Исследования показывают, что музыка может сильно на нас влиять. Это может повлиять на болезнь, депрессию, расходы, производительность и наше восприятие мира. Некоторые исследования показали, что это может усилить агрессивные мысли или способствовать преступности. Вот я хочу, начать с того, что по словам Татьяны Черниговской, что мозг наш, точнее действия мозга можно сравнить с музыкой, вернее с импровизацией. Конечно, музыка по-любому воздействует на наш организм, даже на наш мозг. В древние времена в Китае, то есть во времена конфуцианства, композиторам, которые сочиняли музыкальные произведения было очень трудно. Потому что если это произведение будет вызывать у человека нервные расстройства, то этого композитора вживую закапывали. Музыка также минуя разум, проникает прямо в душу человека. Все мы знаем, что благодаря тому, что воздействию музыки на мыслительную деятельность человека, активизируются различные отделы головного мозга. Даже шум окружающий нас способствует улучшению развития неординарности, креативности, это доказано учеными. Как вы знаете, было проведено много исследований по поводу влияния музыки на человеческий организм. В прошлом столетий учёные проводили эксперимент. В данном эксперименте участвовали 3 ученика, у них были разные IQ. Первому участнику дали наушник, в котором он слушал Моцарта, второму-тихую, расслабляющую музыку, а третьему – одели наушник, но он просто посидел в тишине. После этого им дали тест, из участников удача улыбнулось первому. Согласно этому, ученые пришли к выводу, что классическая музыка способствует повышению интеллектуальных способностей. Недавно проведенное в Великобритании исследование показало, как «тренировочная» музыка – жанр рэпа, характеризующийся угрожающими текстами – может быть связана с преступлением, привлекающим внимание. Это не новость, но появление социальных сетей позволяет больше записывать и делиться.

Содержание этих песен посвящено соперничеству банд, и, в отличие от других жанров, аудитория может судить об исполнителе по тому, будет ли он доводить до конца то, о чем заявляет в своих текстах, пишет автор исследования Крейг Пинкни, криминолог и преподаватель Института криминалистики. Университетский колледж Бирмингема, Великобритания. Помимо музыки, в газете рассматривается роль социальных сетей в разжигании насилия. Онлайн-платформы, которыми охотно пользуются многие, дали соперникам банд возможность перейти в онлайн и стимулировать комментарии сторонников и противостоящих групп, что только усиливает давление, чтобы они отреагировали. Однако, по словам Пинкни, есть несколько причин для роста преступности. Он объясняет, что бедность, лишения, расизм, плохое руководство, отсутствие корпоративных инвестиций, отсутствие возможностей и ресурсов также вносят свой вклад. Дэниел Левитин, профессор психологии и музыки Университета Макгилла в Канаде, отмечает, что сложно проанализировать, может ли музыка создавать насилие. Исследования имеют очень неоднозначные доказательства и в основном используют данные наблюдений вместо контролируемых экспериментов, которые могут учитывать личность людей. Левитин объяснил, что людей, которые уже склонны к насилию, может привлекать жестокая музыка. Но это не значит, что все, кто любит шляпную



музыку, склонны к насилию.

«Когда у вас есть агрессивное поведение, которое имитирует что-то, что есть в мире музыки или искусства, легко прийти к выводу, что искусство заставило человека стать агрессивным», - добавил он. «Но то, что это легко сделать, не означает, что это правда». Есть довольно много экспериментов, конечно, один из проводили где-то в Америке. Там участвовало довольно много студентов, которые слушали тяжелую такую, о часть из них спокойную, расслабляющую. В итоге выяснилось, что студенты, которые слушали тяжёлую музыку они больше всего наблюдалось враждебность, чем у других. Значит, пришли к выводу, что из того, какую музыку мы слушаем, формируется наши и черты, и мышление. Лично я видела такие видео, что девушки, из-за того что их парни бросили они слушают грустную песню. Это просто ужас, стремно было. Ведь каждый решает свою судьбу сам, независимо от других, это же твоя жизнь, живи, наслались моментом. Я думаю, да, конечно, нужно прийти в себя, после такой травмы, но не нужно сосредотачиваться в этом. Жизнь коротка, в один миг, ты проснешься и увидишь, что вся твоя жизнь пролетела, как будто ты на мин закрыла глаза и открыла. Нужно жить сегодняшним днем, не нужно заикливаться на прошлом. Грустная музыка тебя не лечит, даже время не лечит, потому что мы просто привыкаем к этой боли и всё. Нужно себя лечить самой. Живите, вдохновляйте себя, лучше ищите работу по душе, худейте, совет девушкам, учите языки. Есть песни, от которых у нас поднимается настроение, когда ваше настроение на высшем уровне, тогда у вас будет отличная производительность, хорошо запоминается информация. Если классическая музыка ускоряет рост пшеницы, то рок-музыка - наоборот. Если под воздействием классической музыки увеличивается количество молока у кормящих матерей и млекопитающих животных, то под воздействием рок-музыки оно резко снижается. Вообще, растения и животные предпочитают гармоничную музыку.

Литература:

1. Сац Н. И. Всегда с тобой. Страницы жизни. Изд. 2-е, доп. М., «Дет. Лит», 1978., 496 с.
2. Колов В. С., Рыбакина Е. Л. Музыка в потоке времени. — М.: Мол. Гвардия, 1988., 318 с. Кэмпбелл Д. Дж. Эффект Моцарта. \ Пер. с англ. Л. М. Щукин. — Мн.: ООО «Попурри», 1999., 320 с.
3. Комарова Г.Н. Искусство исцеляющее: Метод арт-терапии / Познавая образы мира: культура и искусство в прошлом и настоящем. Сб. статей. Вып. 1. — Казань, 2008.



MUSIQANI SHAXS RUHIYATIGA TA'SIRINING IJTIMOIIY -PSIXOLOGIK OMILLARI.

Abdullaeva Arofat Rustamovna

Farg'ona Davlat Universiteti

Pedagogika –psixologiya fakulteti

Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

+998 91 328 74 35

abdullaevaa 1974@gmail.com

Annotatsiya. Musiqani shaxs ruhiyatiga ta'siri bizgacha filosof olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsada xazirgi kunda ham o'zining ochilmagan qirralari mavjudligi insonni izlanishga chorlaydi.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy, psixologiya, evritmiya, mimesis, katarsis, lad, axareutos, xorey, fiziologik, orkestr.

Har qanday xolatda xam musiqa inson ruhiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bizga ma'lumki musiqa psixologiyasi juda qadim davrlardan buyon o'rganib kelinmoqda. Musiqa psixologiyasi bo'yicha ilk izlanishlar kurtaklarini antik davr faylasuflari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, Pifagor (er. avv. VI asr) asarlarida, uning *evritmiya* ta'limotida shu haqda gap boradi. Evritmiya deganda olim insonning barcha hayotiy Hodisalardan munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan. Ijtimoiy hayotni ladga, orkestrga qiyoslash Pifagordan qolgan. Bu orkestrda har bir ijrochi ma'lum bir cholg'uni chalganidek, Hayotda har bir insonning o'z vazifasi bor. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta'sir ko'rsatishini ham aniqlagan. Umidsizlik, ruhiy iztiroblar, asabiylashish, g'azab va boshqa noxushliklarga qarshi musiqa farq qilingan.[1] Boshqa bir yunon faylasufi Platonning (er. avv. V asr) fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Platon va uning izdoshlari davlat uchun insonni yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqa kerak deb hisoblaganlar. Aristotel (er. avv. IV asr) ham musiqani individning ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashish vositasi deb hisoblagan. Aristotel insonning ichki olami va unga san'at yordamida ta'sir o'tkazish usullarini ochib bergan *mimesis* ta'limotini ishlab chiqdi. Mimesis nazariyasida «*katarsis*» konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, qadim yunon tragediyalari tomoshabin ko'nglini xastalik jazavalaridan tozalagan. CHuqur kechinmalar jarayonida inson ruhan poklanadi, uning qalbi o'zining xususiyligi, yagonaligidan umumiylikka ko'tariladi. Aristotel psixikani o'zgartiradigan musiqiy lادلarni batafsil tasvirlab bergan. Bir laddagi musiqa kishini rahmdil va muloyim qilib qo'yadi, boshqa biri esa asabiylashish yoki hayajonlanishga olib kelishi mumkin. SHunday qilib, doriy, frigi, lidiy lادلaridagi musiqa kishining ruhi va sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, boshqa lادلarda yozilgan musiqani esa yosh avlod qulog'iga etkazmaslik tavsiya etilgan. [4]

SHunday tavsiyalar musiqa cholg'ulari bo'yicha ham ishlab chiqilgan. Qadimgiyunonlarsavodsizodamni «axareutos» deyishgan, bukuylash, raqstushish, cholg'uchalishni, demakki, «xorey»da ishtirok etishga yaroqsiz bo'lgan odamni anglatgan. Qadimgi YUnoniston shahridagi aholini yaxlit birlashtiruvchi musiqiy–xoreografik harakat «xorey» deb nomlangan. Demokrit, Platon kabi antik davr mualliflarining ko'pchiligi musiqaning inson ruhiy holatiga ta'sir qilishi haqida ko'plab dalillar keltirgan: Odissey haqidagi eposda musiqa ta'sirida qontalash yaraning bitib ketishi tasvirlangan, hayotda juda qahrli bo'lgan Sparta hukmdori Likurg o'z qo'shinlari uchun musiqa yaratgan.[1] Qadimgi Xitoyda musiqa tartib va sivilizatsiya ramzi hisoblangan, u tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblangan va o'rganilishi shart bo'lgan fanlar qatoriga kiritilgan. Ma'lumki, Konfutsiyning o'zi (er. avv. VI asr) sin degan musiqa cholg'usida chala olgan. Hindistonda qadimgi shifokorlar musiqadan davolash vositasi sifatida foydalanishgan. O'rta asrlarda yaqin va o'rta sharqda musiqa psixologiyasi Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Marog'iy, Kavkabi kabi buyuk mutaffakkirlar ijodida o'z rivojini topdi. Masalan, Forobiy (873-950) «Musiqa haqida katta kitob»ida musiqaning inson psixologiyasi va ruhiy olamidagi ulkan ahamiyati haqida yozgan. Musiqa kishilarni xursand qilishi, quvontirishi, tinchlantirishi, o'ylantirib qo'yishi, xotirjamlik baxsh etishi, sergaklantirishi va bir vaqtning o'zida uxlatib qo'yishi ham mumkin.[4] Ibn Sino (980-1037) musiqaning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta'sir ko'rsatishi haqida aytib o'tgan. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtai nazardan o'rgangan.



Abdurahmon Jomiy (1414-1492) «Risolai musiqa»sida, shuningdek, interval oraliqlarining his etilishi, ularning melodik va garmonik tuzilishlari konsonans (yoqimli) va dissonans (yoqimsiz) bo'lishlari haqida fikr yuritgan.[4]

Demak, yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki musiqa insonning ruxiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib uni sog'ligi va faoliyatida muhim omil sanaladiyuh. Chunki musiqani xar qanday salbiy emotsiyalarni bartaraf qilishda ham og'ir kasalliklarni davolashda ham pozitiv ta'sirini o'tmishda ham bizgacha o'rganilib faoliyatga tadbiiq etilganligini guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. V.I. Petrushin "Музыкальная психология." : М. :1997.
2. Gogoberidze A.G. "Теория и методика музыкального воспитания детей дошкольного возраста": М.: Издателский центр «Академия», 2005.
3. Zatssepina M.B. "Музыкальное воспитание в детском саду". Москва.: Мозайка- Синтез, 2008.
4. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: www.ziyounet.uz.



MUSIQA TA'LIMIDA BUXORO FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISH MAZMUNI

Alayeva Zarnigor Mahmudovna

Buxoro davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti Musiqa

ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musiqa madaniyati darslarida xalq og'zaki ijodiyoti, ayniqsa Buxoro folklor qo'shiqlaridan o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalashda qay darjada foydalanilayotganligi, bu borada amalga oshirib kelinayotgan real ishlar, qo'llanilayotgan shakl va usullar bilan tanishish, o'rganish, tahlil qilishko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: balet, raqs san'ati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak-tomoshalar, opera san'ati, o'zbek opera janri.

Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablari 5-7 sinf musiqa madaniyati darslari o'quvchilarga axloqiy–estetik tarbiya berishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilar milliy musiqa durdonalari, jahon xalqlari musiqa madaniyati namunalari bilan bir qatorda o'zbek xalq qo'shiqlari hamda folklor qo'shiqlarini tinglab, kuylab ham bahramand bo'lishlari kerak. Musiqa madaniyati darslarida Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatish asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash ishlarini o'rganish bo'yicha rejalari ishlab chiqildi. Maktab o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiyaga oid fikr va mulohazalarini aniqlash hamda umumlashtirish kabi ishlar ham alohida e'tiborda bo'ldi.

Birinchi navbatda, musiqa madaniyati darslarida xalq og'zaki ijodiyoti, ayniqsa Buxoro folklor qo'shiqlaridan o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalashda qay darjada foydalanilayotganligi, bu borada amalga oshirib kelinayotgan real ishlar, qo'llanilayotgan shakl va usullar bilan tanishish, o'rganish, tahlil qilish, maktablarda musiqa madaniyati fanidan dars berib kelayotgan o'qituvchilarning Buxoro folklor qo'shiqlari haqidagi tasavvuri, bilish darajasi, ularni ijro etish mahorati, o'quvchilarga o'rgatib kelayotgan shart-sharoitlari va mazmun-mohiyatini tushuntirib berish mahorati, o'z fikrlarini o'zaro qiyoslab, masalaga estetik tarbiya nuqtq-nazardan yondashish bo'yicha mavjud holatini aniqlashga harakat qildik.

Dastavval, 5-7-sinflar musiqa darsliklari mazmun-mohiyatini tahlil qildik. Xulosalar shundan iborat bo'ldiki, 5-sinf musiqa darsligida o'quvchilarga o'zbek xalq cholg'ulari orkestri, xor san'ati, simfonik orkestr, musiqada vokal-simfonik janrlari, sahnaviy musiqa asarlari – balet va raqs san'ati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak-tomoshalar, opera san'ati va o'zbek musiqasida opera janri bo'yicha nazariy va amaliy bilim berish nazarda tutilgan. 6-sinf musiqa darsligida mumtoz musiqa, kuylar, ashulalar, Shashmaqom mumtoz musiqamizning asosi ekanligi, Farg'ona-Toshkent, Xorazm, Surxandaryo-Qashqadaryo mumtoz musiqasi, mumtoz musiqaning madaniyatimizdagi o'рни, o'zbek zamonaviy musiqasi, estrada musiqasi, musiqa san'ati bo'yicha ko'rik-tanlov va festivallari, Sharq xalqlari hamda Yevropa mumtoz musiqasiga oid materiallar kiritilgan. Shuningdek, o'quv yilining II-choragida folklor musiqasi va dostonchilik san'ati bo'yicha 2-ta mavzu ham kiritilgan. 7-sinf musiqa darsligi esa xalq musiqasining mahalliy uslublari, maqomlar haqida umumiy tushuncha, o'zbek musiqa san'atining jahon musiqa san'atida tutgan o'рни, O'zbekistonning musiqa madaniyati materiallar asosida tashkil topgan.

5-7-sinflar musiqa darsliklari tahlilidan ko'rinib turibdiki, ularda folklor qo'shiqlari, jumladan, Buxoro folklor qo'shiqlari bo'yicha materiallar, ma'lumotlar berilmagan. To'g'ri, 6-sinf darsligida folklor musiqasi haqida mavzu berilgan va folklor musiqasini milliy urf-odatlarimiz, marosimimizning ohanglari ko'rinishi deyish mumkinligi; folklor musiqa namunalari xalqimizning kundalik hayoti, mashg'uloti va milliy qadriyati bilan chambarchas bog'liqligi; ularni asrash va kelajak avlodga to'laqonli yetkazish maqsadida maxsus folklor ansablari tashkil etilganligi (1978 yilda ilk bor Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida "Gulyor" folklor ansambli tashkil etilganligi), hozirda esa barcha viloyatlarda bunday ansambllar mavjudligi haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, musiqa merosi tarkibidan o'rin olgan folklor namunalari orasida o'zbek xalqining urf-odatlariga asoslangan marosim qo'shiqlari alohida ahamiyat kasb etishi va ular o'z xususiyati doirasiga ko'ra bolalar folklori, mehnat va to'y-marosim bilan bog'liq qo'shiqlar, diniy qo'shiqlar, afsuniy qo'shiqlardan iborat ekanligi, hamda alla, lapar, terma, qo'shiq janrlari ham



folklor musiqasining asosiy janrlari ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, 5-7-sinflar musiqa darsliklarida folklor qo'shiqlari bo'yicha ma'lumotlar, materiallar yetarli darajada o'z ifodasini topmagan. 6-sinf darsligida qisman folklor musiqasi haqida ma'lumot berilgan, xolos. Buxoro folklor qo'shiqlar haqida esa hech qanday ma'lumot yo'q. Bu holat tanlangan mavzumizning dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of "Buxor" Tune // Eastern European Scientific Journal. 2019, pp. 118-122.

2. Миршоев Улугбек Музаффарович УЗБЕКСКИЙ МУЗЫКАЛЬНЫЙ ФОЛЬКЛОР И ЕГО ЖАНРОВАЯ СТРУКТУРА // Проблемы науки. 2021. №1 (60). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uzbekskiy-muzykalnyy-folklor-i-ego-zhanrovaya-struktura> (дата обращения: 11.05.2021).

3. Журабек Тураевич Ярашев МУЗЫКАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalnaya-terapiya> (дата обращения: 11.05.2021).

5. Dilnavoz O'Ktarnova Muratova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqa-madaniyati-darslarini-tashkil-etishda-o-qituvchining-pedagogik-mahorati> (дата обращения: 11.05.2021).



O'QITUVCHINING MUSIQA DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH PEDAGOGIK MAHORATI

Muratova Dilnavoz O'ktamovna

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti
Musika ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda zamonaviy musiqa fani o'qituvchisining pedagogik mahoratiga - o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, o'quvchilarning shaxs kamolotini rivojlantirish maqsadlari tomon yo'naltira olish, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'ota olish kabi asosiy vazifalar kiradi.

Kalit so'zlar: Musika, pedagogik mahorat, ijtimoiy o'z-o'zini belgilash, ijtimoiy faollik, ijtimoiy mas'uliyat, o'quv predmeti, dirijyorlik.

Musiqiy-pedagogik faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati esa yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Musiqiy-pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligini, ya'ni ketma-ketligini ta'minlash ga xizmat qiladi. Musiqiy faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liqdir va bunda musiqiy-pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi juda muhimdir. V.Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi¹».

“Musiqiy-pedagogik mahorat” birnecha kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. Jumladan:

- pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin sifatida tushuniladi.
- pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.
- mahorat o'quvchilar tomonidan uning ijtimoiy yetuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Ijtimoiy yetuklik komponentlari pedagogik mahorat komponentlari bilan nisbatda bo'ladi. Bo'lg'usi pedagogning ijtimoiy yetuklik komponentlariga quyidagilar kiradi:

Ijtimoiy o'z-o'zini belgilash - o'zining pedagogik qobiliyatlari va e'tiqodini namoyon qilish;

Ijtimoiy faollik - odamlar bilan ishlay olish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;

Ijtimoiy mas'uliyat - o'qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlar.

Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi kiradi.

Mahoratning shakllanish bosqichlariga esa reproduktivlik (boshlang'ich), ijodiylik, ijodiy-tashabbuskorlik kiradi.

Pedagogik mahorat darajalari keng qamrovli bo'lib, musiqa fani o'qituvchisining ish darajasining davomi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limni o'quv predmeti demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni xisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlari qatori jumladan musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Musika madaniyati o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, musiqa san'ati bolalar bog'chalarida, bolalar musiqa va san'at maktablari hamda o'rta umumta'lim maktablarida, madaniyat uylari va yoshlar ijodiy uylarida keng qo'llanib kelinmoqda.

Musika madaniyati darsi o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan uzviy bog'lanadi. O'quv rejada ko'rsatilgan barcha o'quv fanllari qatori musiqiy ta'limda ham DTSning joriy etilishi milliy musiqiy meros manbalaridan to'la qonli foydalanish imkonini beradi. Milliy musiqiy meros san'ati yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi.

Musika madaniyati o'qituvchisi darslarni qiziqarli, mazmunli o'tishi bilan bir qatorda

¹ B.X.Madrimov “Musika o'qitish texnologiyalari va loyihalash”. Buxoro, “Durdona” nashriyoti. 2020. (11-bet)



o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va shu bilan birga ahloqiy madaniyatini shakitllantirish mahoratiga, shuningdek, milliy g'ururi hamda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishi kabi ijodiy mahoratga ham ega bo'lishi kerak.

Musiqqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahorat darajalarning muhim jihatidan biri shundaki, u eng avval, ta'lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o'rganishi lozim. Bu albatta musiqiy ta'lim-tarbiya sohasidagi ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi.

Musiqqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini olib boorish bilan chegaralanmasligi yoki faqatgina keng bilimga ega bo'lib qolmasligi kerak. U o'zining fanini yaxshi va chuqur bilishi lozimdir. O'quvchilarni musiqqa san'ati bilan tarbiyalashda esa alohida e'tibor qaratib, ularning dunyoqarashi, musiqqa sohasida fikrlashi, tushunchasini boyitib borishi muhim ahamiyatga egadir. O'qituvchi musiqqa kishi xissiyotini, ayniqsa emotsional estetik xissiyotini faol rivojlantira olishini unutmasligi kerak.

Musiqqa o'qituvchisi mahoratli sozanda va yaxshi san'atkor bo'lishi lozimdir. U musiqqa cholg'usida yaxshi chalish malakasiga, qo'shiqni chiroyli va yoqimli kuylash ovozga ega bo'lishi, notaga qarab yaxshi ijro qilishi, o'quvchilar qobiliyati, bilim saviyasi, mahoratini bir-biridan ajrata bilishi lozimdir. Musiqqa o'qituvchisining musiqqa asbobida mahorat bilan ijro etishining juda muhimligini quyidagicha alomatlarini belgilanadi.

Birinchidan: Jonli ijro etish - sinfda kayfiyatni yaxshilaydi.

Ikkinchidan: Jamoa bo'lib (xor) ijro etayotganda istalgan jumla yoki (takt) qismlarni takrorlash mumkin.

Uchinchidan: Musiqqa asbobida ijro eta oladigan musiqqa o'qituvchisi o'z tarbiyalanuvchilariga musiqani qiziqarliligi va muhimligini amaliy jihatdan ko'rsatib beradi.

Musiqqa o'qituvchisi musiqqa asbobini mahoratli ijro etishi bilan cheklanib qolmay yoqimli tovush, dirijyorlik hatti-harakatlarini, musiqqa nazariyasini mukammal bilmog'i va ijod qilishi mahoratiga ham ega bo'lishi lozimdir. O'qituvchining shaxsiy namunasi va bilim darajasi musiqqa fanining taqdirini hal qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkimki, musiqqa madaniyati darsida o'qituvchining mahorati har tomonlama yuksak darajada bo'lishi o'ta muhim hisoblanadi. Uning asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib berishi, o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqqa san'ati olamiga olib kirib, badiiy hamda ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch - T.: Ma'naviyat. 2008.
2. I. Akbarov. Musiqqa lug'ati - T.: 1997.
3. T. Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi - T.: 1985.
4. B.X.Madrimov "Musiqqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash". Buxoro, "Durdona" nashriyoti. 2020.



SHAXSNI MA'NAVİY BARKAMOL QILIB TARBİYALASHDA MUSIQANING TUTGAN O'RNI

Djuhonova Nohida Hayotjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Telefon: +998936402461

noxida88@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxslarning o'zaro bir-birlari bilan bo'lgan ruxiy munosabatlarning psixologik tomonlari. Musiqani inson ruxiyatiga ta'sirini ijtimoiy-psixologik jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: axloq-odobi, urf-odatlar, an'analari, diniy e'tiqod, musiqa, san'at, ma'naviy estetika.

Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamol inson haqida gapirib bo'lmaydi. Toki odamzod o'zini qurshab turgan tashqi olamda, o'zi yashayotgan jamiyatda, o'zi bilan muloqotda bo'layotgan kishilarda, tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilayotgan badiiy ijod namunalarida mujassamlashgan go'zallikni his qila olmas ekan, hech qachon ma'naviy barkamol inson darajasiga ko'tarila olmaydi. Musiqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir.

Musiqa insonning moddiy va ma'naviy turmush tajribalari, ehtiyojlari va o'zini qurshab turgan tashqi muhitga, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlari natijasida paydo bo'lgan. Xalqning ichki ruhiyati, dunyoqarashi, intilishlari va orzu-havasi musiqa ohanglarida aks etadi. Musiqiy ohanglarda uning ijodkori hisoblangan xalqning, qabila yoki elatning sho'x va hazin, o'ynoqi va mungli ichki nidolari mujassamlashadi. Xalq musiqasida kishilar o'rtasida ro'y beradigan insoniy axloqiy munosabatlar o'z ifodasini topadi.

Musiqa asrlar davomida shakllanib, sayqal topib, badiylashib, yuksak pog'onalariga ko'tarilgan va har bir xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan. Musiqa xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlari, an'analari, diniy e'tiqodining ayrim jihatlarini o'zida mujassamlashtirib, orzu-umidlari, mehnatga, Vatanga bo'lgan muhabbatini, sevgiga vafodorligini, erk, ozodlik uchun kurashdagi mardonavorligini tarannum etadi. Binobarin, musiqiy meros juda boy va qadimiy tarixga ega bo'lgan madaniyatning noyob bir turi hisoblanadi. An'anaviy tarzda rivojlanib kelayotgan musiqa madaniyatimiz hozirgi bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tish davrida ham insonni ma'naviy yuksaltirishning samarali vositasi bo'lib qolmoqda.

Musiqa - san'atning eng qadimiy va halq ommasiga keng tarqalgan uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalaridan biri hisoblanadi kishilarning xis-tuyg'ulari, fikrlari va kayfiyatlari musiqada, o'ziga xos xislatlar ifoda etadi. Ayniqsa, shular orasida musiqani sevmaydigan, uni chin dilidan tinglamaydigan, uning ta'siriga berilmaydiganlar topilmasa kerak.

Buyuk alloma Farobiy musiqani ovozlari to'g'risidagi ilmdir deb, ovozni uch turga baland, past va o'rta ovozga bo'lishni ko'rsatib o'tgan. Uning ta'kidlashicha cholg'u-musiqa ashulalarga jo'r bo'ladi yoki ovozga taqlid qiladi, uni boyitadi. Farobiyning yana bir qayd etishicha, insonning ovozi haqidagi tasavvur, ya'ni musiqaning inson sezgi organlariga bo'lgan bevosita ta'siri va insonning ulardan ta'sirlanishi natijasida vujudga keladi. Musiqa yaratuvchi, tashqi ta'sir natijasida vujudga kelgan ovozlarni o'zlashtirish va singdirish qaytadan, tasavvur etish asosida kuy, oxang yaratadi.

Musiqaning ta'sir kuchi shu qadar kuchliki, uning yordamida kasal yotgan kishini oyoqqa turg'azish mumkinligini fan isbotlab bergan. Ibn Sino musiqaning ta'sir kuchiga, olohada e'tibor berib, ayrim ruxiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasida davolash mumkinligini aytib o'tgan.

Musiqa san'ati kishiga butun bir yuksak tuyg'ular, zavq-shavqlar, g'oyalar olamini bilib beradi. Odamlarni ma'naviy jixatdan boy, sof va barkamol qiladi. Xar bir millatning o'z musiqasi, o'zining qulog'iga yoqadigan ovozlari bor. Lekin ayrim musiqa el-elatni bir-biriga yaqinlashtiradi, insonlarning qalbini, ongini yomon fikrlardan, illatlardan tozalaydi. Musiqa tufayli inson o'zida yangi, ilgari sezmagani kuchlarni topadi. Xayotga boshqacha nazar bilan qaraydi. Musiqa turlaridan hisoblangan qo'shiq inson xayotida muhim o'rin egallaydi. Qo'shiq kelib chiqishi sabablarining birinchisi - mehnat, kishilarning mehnat faoliyatlaridir.

Musiqa xayratli va takrorlanmis hodisa. U insonlarni ma'naviy boyitadi. Hayotimizga alohida ma'no va mazmun kiritadi. SHuning uchun xam uning yashashi uchun tabiiy ehtiyoj bor.

Musiqiy ta'lim- shaxsni shakllantirish muammosi bo'yicha qilingan ishlar juda ko'p bo'lishiga



qaramay aynan musiqiy nazariy bilimlar orqali inson shaxsini shakllantirish muammosi etarli darajada ishlanmagan. Zamon talabi shundan iboratki, avvallari musiqa madaniyati insonlarda qo'shiq kuylash, musiqa savodi, musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash malakalarini egallashga qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunda insonlarning milliy musiqiy did, dunyoqarash, tafakkur, musiqiy idrokni, musiqiy ijobiylik qobiliyatini, musiqiy savodxonlikni shakllantirish **dolzarb** muammolardan biri hisoblanadi.

Shaxs badiiy-estetik didini shakllantirishda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq u ijodning eng nozik tuyg'ularini, xis - xayajonni, inson miyasiga boy emotsiya zahiralari solishga qodirdir.

Demak, musiqaning inson ma'naviyatining shakllanishida tutgan o'rni bo'yicha olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlar shundan dalolat beradi:

- musiqa san'ati insonning ijtimoiy faol mavjudot bo'lib shakllanishi bilan hamohang tarzda odamzodning tabiat va jamiyatdagi o'rni hamda faoliyatini belgilovchi mehnat, ijod va yashash sharoitlari natijasi sifatida paydo bo'ladi;

- unda xalq, ulka, mamlakat va muhit bilan bogliq inson hayotining turli-tuman qirralari, his-tuygulari va orzu-ideallari aks etadi;

- musiqa san'atn kuchli emotsional ta'sir etish xususiyatiga binoan xalq, millat va muhitning go'zallik haqidagi tuyg'ularni va tasavvurining ma'lum badiiy-estetik qadriyatlar shaklida taraqqiy etishida juda katta ma'naviy-tarbiyaviy vazifani bajaradi va bu narsa pirovard natijada milliy uziga xosligini ta'minlovchi asosiy badiiy-estetik omil eazifasini utaydi;

- musiqa ohanglar, kuylar orqali insonning tabiat, jamiyat va haetga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bunda u insonning bevosita haetiy ziddiyatlar, turmush chproza»sidan olib chikib, xayolot va nafosat olami bilan oshno etadi, insonda , jamiyat va hayotga bo'lgan muhabbatni kuchaytiradi;

- insonning hayotga bo'lgan moddiy, ma'naviy-estetik munosabatlarini turli-tumanligi va musiqa san'atining spetsifik taraqqiyot tamoyillari uni tarixan shakllangan va doimiy rivojlanib boradigan yo'l, usul, tur va janrlarning hamda cholg'u asboblarning xilma-xilligi va rang-barangligiga olib kelgan;

- musiqaning paydo bo'lishi uning vazifasini ham belgilagan.

Musiqa uzining dastlabki ko'rinishlari — ona allasidan to opera darajasigacha bo'lgan taraqqiyot jarayonida inson qalbi va ruhiyatiga malham vazifasini bajargan. U odamlardagi eng yaxshi fazilatlarni kuchaytirgan, ularni ezgulik, muhabbat va qahramonlikka chorlagan. Shuning uchun musiqa yakka shaxsga emas, omma va xalqqa qarata ijro etiladi, ko'pchilikning badiiy-estetik ongi va tuyg'ularini uyg'unlashtiruvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bunday inson milliy va umumbashariy qadriyatlarni puxta o'zlashtirgan, axloqli, ma'rifatli, ilmi-bilimli, idrokli, odobli, iymonli, milliy g'ururi baland, vatanparvar bo'lishi zarur edi. Bu fazilatlarni egallashda va ma'naviy yuksaklikka ko'tarilishda musiqaning roli va ahamiyati nihoyatda kattadir.

Ikkinchidan, har bir inson milliy va umumbashariy qadriyatlarni, hususan, musiqa madaniyatimizni chuqur anglab etmasdan, uning an'analari va zamonaviy namunalaridan samarali foydalana olmasdan, bu qadriyatlarni asrab-avaylamasdan ma'naviy barkamol bo'la olmaydi. Bu borada tarbiyaviy omillar va ma'naviy-ma'rifiy tizim imkoniyatlaridan samarali foydalaiishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi osqichga ko'taramiz. Asarlar I-jild.- T:O'zbekiston, 2017.—592 b.

2. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvdagi ma'ruza // Xalq so'zi, 2017 yil 4 avgust. №153

3. Karomatov F. Ananaviy muzika va zamonaviylik//Sovet O'zbekistoni san'ati, 1983, №9, 20-6

4. Nosirova CH. Ommaviy qushiqlarda internatsionallik// Sovet Uzbekistoni san'ati, 1980, №8, 24-6.



МУСИҚАНИ ИНСОН ПСИХОЛОГИЯСИГА ТАЪСИРИ

Закирова Мухаббат Сабиловна

Фарғона давлат университети психология
кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада музикнинг инсон психологиясига таъсири, музикатерапия орқали киши салбий ҳолатини бартараф этиш йўллари ёритилган.

Калит сўзлар: музика, музикатерапия, эмоция, невроз, стресс

Музикатерапия — 30 йилларда немис терапевтлари ошқозон ярасини даволашда ушбу усулдан фойдаланишган. Музикий оҳангдан юзага келган тебраниш одам ички аъзоларини ҳаракатга келтира олиш хусусиятига эга бўлган. Шифокорлар ҳатто маълум қонунийликни (қайси музика асбоби қайси аъзога фойда келтиришини) ва музикатерапия учун энг мақбул вариантни ҳам аниқлашди.

Музика садоларининг инсон организмга таъсири ҳақида Гиппократ ҳам гапириб ўтган. Махсус куйлар ёрдамида қадим замонларда табиблар тутқаноқ ва бош оғриғини даволашган. Айтишларича, қор қилган экан. Умуман, ҳозир ҳам одамларга музика етарлича таъсир ўтказди. Муҳими — тўғри танлов қилишда.

Музикатерапия — 30 йилларда немис терапевтлари ошқозон ярасини даволашда ушбу усулдан фойдаланишган. Музикий оҳангдан юзага келган тебраниш одам ички аъзоларини ҳаракатга келтира олиш хусусиятига эга бўлган. Шифокорлар ҳатто маълум қонунийликни (қайси музика асбоби қайси аъзога фойда келтиришини) ва музикатерапия учун энг мақбул вариантни ҳам аниқлашди.

Психотерапида 1950 йидан бошлаб музика ва маромдан фаол фойдаланилмоқда. Мақсадга йўналтирилган ритмик-психомотор терапия даставвал ҳаракат функцияларининг секинлаштирилган тараққиёти, церебрал парез ва периферик неврология бузилишларида, болаларнинг ҳаракат кўникмаларини ишлаб чиқиш учун қўлланилган. Бироқ кўп ўтмай шу нарса аниқландики, бу терапевтик усулдан психореактив бузилишларга эга беморларга индивидуал ёндашиш учун, шунингдек гуруҳ психотерапиясида кенг ва самарали фойдаланиш мумкин.

Психомотор функцияси бузилганда теварак-атрофни идрок қилишда ўз аксини топади. Ахборот қабул қилиш ва узатиш, шунингдек, мантикий тафаккур тараққиётида жуда зарур бўлган инсон нутқи, нутқ аъзоларининг акустик хусусиятлари ва моториканинг муҳим белгилари (лаблар, тил, танглай ва бўғиз) туфайли юзага келади. Нутқ, шунингдек нормал моторикасиз ҳосил бўлиши мумкин бўлмаган турли ритмик белгиларни олади. Бола музикани боғланишсиз ширин, қувноқ гувранишдан монологга, шунингдек маромли тақиллатиш, тебраниш ва нафас олиш ҳаракатлари билан машқ қилади.

Психомотор феноменлар эмоционал даражада катта рол ўйнайди. Эмоционал қизғинлик ўз-ўзидан ҳаракат фаоллигининг ортиши натижасида барҳам топади, масалан, тезлашган ҳаракат ёки агрессия шаклидаги қўрқув ҳолати мотор эҳтиёжларини қондиришдаги тўсиқлар анча заиф шаклдаги невротик тормозланиш ҳолатига олиб келади. Ўз-ўзини намоеън этиш ва мимика, қўл ҳаракатлари ва нутқ кўринишидаги мулоқот бузилишларини ёшга мос музикий-маромли ўйин ёрдамида четлатиш лозим.

Мижозларнинг фаолилигига қараб, музикатерапия жараёнидаги даражалар фаол ва суст бўлади.

Фаол даражада мижоз нафақат эшитади, ҳатто ўзи ҳам бунда иштирок этади; Суст даражада- мижоз фақат эшитади.

Фаол музикатерапияда музика асбобларини чалиш яқка ва гуруҳ тартибида бўлиши мумкин. Музикани яхши эслаб қолиш ёки тушиниши учун, ундаги кайфиятлар, образлар, жараён ҳақида маълумот бериш етарлидир.

Ритмик психомотор терапия диққат марказида энгил ёки ўртача мураккабликдаги ҳаракат координацияси бузилишлари, гавданинг, мимиканинг ва қўл ҳаракатларининг сиқиклиги, нутқнинг бузилиши, ритмик ҳаракатларга қобиляцияцизлик, шунингдек асосий психик синдром, нотўғри тарбия, хаддан ортиқ чарчаш ва неврозлар билан боғлиқ бир қатор хулқ-атвор ва мослашув аномалиялари туради. Музикий маром, инсон танаси ҳаракатлари би-



лан узвий боғлиқ бўлиб, импульс берувчи ва инсонда ҳаракат мароми ривожланишига ёрдам берувчи қимматли методик восита ҳисобланади. Ҳаракат ритми ва моторика бир-бирига ўхшамайди, улар бир-бири билан нисбий боғлиқликда бўлади. Моторика ритмик ҳаракатларда намоён бўлади, маром учун эса инсон танаси ва унинг моторикаси асбоб сифатида керак. Инсон танасининг ритмик ҳаракатлари маълум тузилишга эга. Мусиқани идрок қилишда тана билан тутиладиган тебратиш катта аҳамиятга эга. Шу билан бирга мусикатерапия кишилар эмоционал ҳолатларига таъсир этади.

Инсон онги ва тафаккурига санъатнинг хусусан, мусиқанинг мўжизакор таъсири ҳақида кўп гапирилган. Лекин мусиқа нафақат инсоннинг руҳиятига балки, тана сўлигига ҳам ижобий таъсир этади. Шу билан бирга мусиқа асбобларидан таралган мусиқа оҳангини тинглаганда, инсонни ички аъзолари фаолиятига ижобий таъсир ўтказиши аниқланган.

Шу билан бирга тадқиқотчилар мусиқа биопсия беморларга хавотир ва оғриқни камай-тиришини аниқлашди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Рудестам К. Групповая психотерапия. Психокоррекционные группы: теория и практика/Пер. с англ.; Общ. ред. Л.П. Петровской. - 2-е изд. - М., 1993. - 368с.
2. Карвасарский Б.Д. Медицинская психология. Издание второе, переработанное и дополненное. Издательство «Медицина». - Москва. 2001.-317стр
3. Нишонова З.Т. ва бошқалар. Психогигиена.-Тошкент. 2005
4. Солиев Ф.С. Умумий психологиядан маъруза матни. —Фарғона. 2018 й



ARAB MILLIY MUSIQA ASBOBLARI

Azamat Fayzullayev,
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab xalqining qadimdan shakllangan an'anaviy hamda hozirgi kunda zamonaviy musiqa san'ati bilan uyg'unlashgan milliy musiqasi va musiqa asboblari haqida so'z boradi. Maqola jahon milliy musiqasiga qiziquvchi barcha uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: ud, nay, qonun, skripka, riq, tabla.

Arab musiqa san'ati ko'pyillik tarixga ega bo'lib, davrlar o'tishi bilan boshqa millatlarga xos bo'lgan musiqiy asboblarni qabul qilib boyib borgan. An'anaviy arab musiqa ansambli "taxt" nomi bilan mashhur bo'lib, u 4 ta asosiy musiqa asboblaridan iborat: ud, nay, qonun va skripka. Bundan tashqari zarbli musiqa asbobi ham mavjud bo'lib, u "riq" deb ataladi. Ba'zan riq tabla (nog'ora) bilan almashtiriladi. Quyida ushbu musiqa asboblari haqida qisqacha ma'lumot beriladi:

1. **Ud** – (arab. — qora daraxt) — torli-mezrobli qadimgi musiqa asbobi. Katta, noksimon va yupqa qopqoqli kosaxona, kalta va enli dastaga ega. Tovushi yumshoq va mayin. Arab musiqasida eng mashhur asbob. Bo'yin kalta, hech qandaynoqulayliklarsiz, har qanday intonatsiyada notalar olish imkoniyatini beradi, shuning uchun chorak notalari bo'lgan arab maqomlari uchun juda mos keladi. Eng keng tarqalgan torli kombinatsiya - 5 juft iplar birlashtirilib sozlangan va bitta bosh sim o'rnatilgan uddir (neylon yoki hayvonlarning ichaklaridan yasalgan 13 ta torli bo'lishi mumkin). Zamonaviy torlar neylon ustiga o'ralgan po'latdan yasalgan. Turk, arman va yunoncha ud arab udlaridan biroz farq qiladi va turli xil sozlamalarni talab qiladi. Turkcha uslubdagi ud arab udiga qaraganda yorqinroq tovushga ega.

2. **Nay** – puflab chalinadigan musiqa asbobi. Nayning ikki xili bor: bo'ylamasiga ushlab chalinadigan nay (cho'pon nay) va yonlamasiga ushlab chalinadigan nay. Arab naylari qamishdan yasaladi, Nayning uzunligi 45-52 sm, diametri 20-30 mm bo'ladi. Nay kanalining bir uchi bekilgan bo'ladi. O'sha yopiq tomonga yaqin joyida puflash uchun teshik bo'ladi. Bu teshikning pastrog'ida qo'l bilan berkitib-ochiladigan 6 ta teshik bo'ladi.

3. **Qonun** – Qadimgi Misr arfasining avlodi hisoblanadi. X asrdan boshlab arab musiqasining ajralmas qismiga aylangan. XII asrga kelib Yevropaga kirib keldi va XIV-XVI asrlarda mashhur bo'ldi. Psalteriya yoki zitra kabi asrlar ham dulsimerga o'xshaydi. Uning asosi qanotsimon, yassi quti yoki trapetsiya shaklida bo'lib, yog'ochdan ishlanadi. Mazkur qismining ustiga yog'ochdan yo'nalgan qopqoq qoplanadi. Qopqoq ustiga torlarni ko'tarib turuvchi ko'targichlar o'rnatiladi. Qonunning umumiy uzunligi 800–900 mm, eni 380–400 mm atrofida, torlar soni 81 dona (har bir tovush uchta tordan iborat) bo'lib, ichak, hozirda kapron va metallardan ishlanadi. Tovushqatori temperatsiya qilingan, umumiy diapazoni 3 oktavadan oshadi. Qonun tizzaga qo'yilgan holda, ko'rsatkich barmoqlarga kiydirilgan maxsus moslamalar yordamida tirnab chalinadi. "Qonun" arab tilida "qoida" degan ma'noni bildiradi. Asbobning bunday atalishiga sabab sozandalar o'z asboblarini shu asbob kuyiga qarab sozlashgan.

4. **Skripka** – kvintaga sozlangan to'rtta torli kamonli musiqa cholg'u asbobi, arab tilida "kamon" yoki "kamoncha" deb ataladi. XIX asrning ikkinchi yarmida arab musiqasiga qo'shilib, Misrning mahalliy 2 torli musiqa asbobi o'rnini egalladi. Bu hech qanday jilvasiz asbob bo'lgani uchun, u arab maqomining barcha ohangdorligini yaratishga yordam beradi. Turli xil sozlash usullari qo'llaniladi, ammo an'anaviy arab sozlamalari to'rtinchi va beshinchi qismlarga to'g'ri keladi (G3, D4, G4, D5). Skripka odatdagi iyak ostidagi uslubda yoki tizzaga tikka qo'ygan holda chalinadi. Marokashlik arablar, asosan, gamba uslubida skripka chaladilar.

5. **Riq** – aylana yog'och asosga baliq yoki echki terisi tarang tortilib tayyorlangan an'anaviy arab musiqa asbobi. Hayvonlarning tabiiy terisi namlikka sezgir va zichligini tez yo'qotishi tufayli aluminiy yoki yog'och korpusli asbobga o'rnatilgan terilat tez-tez almashtirib turiladi. XX asrning 1-yarmigacha riq arablar orasida yakkaxon musiqa ijrochiligidagi ishlatilib kelingan. XX asrning 2-yarmidan boshlab riqni tabla kabi zarbli cholg'ular bilan birga ijro etish yuzaga keldi.

6. **Tabla (darbuka)** – qadahsimon shakldagi arab milliy musiqa asbobi.

Arab musiqasida yuqorida sanab o'tilgan asboblardan tashqari qanbus, buzuq, avtar, lutar, sintri, jimbri, Iroq santuri, javza, kamoncha, simsimiya, kissar, tanbura, yahudiy lirasi, kavala, mizmar,



mizvad, mijviz, salamiya, arg‘ul, minjayra, shababa, bendir, daf kabi o‘nlab musiqiy cholg‘ular bor.



Ud



Nay



Qonun



Mizmar



Skripka



Riq



Tabla



Bendir

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://zawaya.org/site/arabic-instruments>
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Arabic_musical_instruments
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Oud>
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Скрипка>
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/Qanun_\(instrument\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Qanun_(instrument))



VENGRIYADA MUSIQA TA'LIMI TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Begliyev Reymbergen

Xorazm viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 457 18 20

begliyevreymbergen_1955@inbox.uz

Begliyev Sanjar Reymbergenovich

Xorazm viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 452 09 03

sanjarbegliyev21@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola Vengriyada musiqa ta'limi tizimining o'ziga xos jihatlari haqida.

Kalit so'zlar: Musiqiy tarbiya, xor jamoasi, Koday metodi, Musiqa qo'shiqchiligi, guruhli kuylash.

Vengriyada musiqiy tarbiya sohasida erishilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og'zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog Zoltan Koday (1882-1967) nomi bilan bog'liqdir. Bolalarning musiqiy tarbiya sohasidagi o'zining faol va sarmahsul faoliyatini Zoltan Koday 1920-yillardan boshladi. Z.Kodayning bolalar musiqiy tarbiya tizimi ommaviylik tamoyiliga asoslangan.

Buyuk alloma xor jamoasida qo'shiq aytish hammaga ham mumkinligini alohida ta'kidlagan, keng ommani xor ijrochiligiga jalb etib, bu ishga alohida diqqat va e'tiborni talab qildi. Uning butun musiqiy ta'lim jarayoni xalq kuylariga asoslangan. Koday ommaviy venger maktabiga "Tonika-sol-fa" usulini kiritdi. Uning g'oyalari ikkinchi jahon urushidan so'ng ommalashib ketdi. Koday metodi - bu yaxlit tizim bo'lib: relyativ (nisbiy) solmizatsiya, kuylayotgan o'quvchilarga qo'l harakati yordamida beradigan ko'rsatmalar, venger xalq qo'shiqlari, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim maktablari, xor sinflari hamda guruhli kuylashdan iborat.

Unutmaslik kerakki, Koday metodi haqida gap ketganda so'nggi musiqiy tarbiya qonsepsiyasi haqida, uni hayotga tadbiiq etish yo'llari to'g'risida bormoqda. Bularni Z.Koday turli manbalardan olib, venger musiqasi xususiyatlariga moslashtirdi.

Guruhli kuylash Vengriyada, haqiqatdan, umumxalq jarayoni bo'lib, bunga musiqa savodxonligi, nota bo'yicha qo'shiq ayta olishga yordam beradi. Z.Kodayning "2000-yilga kelib, har bir umumta'lim maktabini bitirgan usmir notani erkin o'qiy oladi" - degan orzusi amalga oshmoqda.

Vengriyada musiqiy tarbiya yuqori darajadadir. Butun mamlakatdagi umumta'lim maktab tizimining asosi 8 yillik to'liqsiz o'rta maktab bo'lib, uni bitirgan o'quvchilar 4 sinfli gimnaziya o'tadilar. Birinchi sinfda bolalar haftada 2 marta 0,5 soatdan, 2-7-sinflarda esa haftada 2 soat "Musiqa" o'quv fani bilan shug'ullanadilar.

Bundan tashqari, har hafta ikki soat orkestr mashg'ulotlariga ajratilgan. Gimnaziyaning 3-4-sinflarida o'quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta musiqa cholg'usini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umumta'lim maktablari orasida "Musiqa qo'shiqchiligi" to'liqsiz o'rta maktablari, ya'ni musiqani chuqur o'rganishga qaratilgan umumta'lim maktablari keng joriy etilgan. Ularda 1-4-sinf o'quvchilari haftada 6 soat, 5-7-sinflarda esa 4 soat musiqa va 2 soat xor mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar. Maktablarda, shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg'ulari sinflari mavjud.

Bunday maktablardagi sinflarda o'quvchilar soni umummaktab, sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya'ni 26 o'quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari ularda umumta'lim yo'nalishdagi o'quv fanlarining soni ham qisqartirilgan.

Boshlang'ich sinflarda barcha o'quv fanlaridan bilim berayotgan o'qituvchi musiqa darsini ham o'tadi. 5-8-sinflarda bu darslarni musiqa mutaxassisi olib boradi. Bolalarning musiqa savodini chiqarishda ustoz tomonidan qo'l harakatlari, maxsus imo-ishoralar qo'llaniladi.

Relyativ solminizatsiyani chuqur o'rgangandan so'ng, o'quvchilar mutlak tizimga o'tadilar. Musiqa ta'limini berish, shu jumladan musiqa o'quvini rivojlantirish uslubiyoti, asosan, bolalar ongining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan va ularga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Umumta'lim maktablarida fortepiano, fleyta, yogoch simbala va ayrim urma cholg'ulardan foydalaniladi. Koday tizimi, ayniqsa, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan va umumiy



ta'lim maktablariida o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

Har kungi musiqa darslari bolalarda usullarni ajrata bilish tajribasini, xotira, his-tuyg'ularni rivojlantiradi. 14-18-yoshdagi o'quvchilar ta'lim oladigan gimnaziyalarda musiqa tarixi fani o'rganiladi, barcha janr, uslub va davrdagi musiqa asarlari eshitiladi, shuningdek, sinfdan tashqari ishlaydigan xor va orkestr jamoalarida faoliyat ko'rsatadilar.

Vengriyada maxsus musiqa ta'limi beradigan gimnaziyalar ham mavjud. Bunday gimnaziyalar bitiruvchilari, aksariyat hollarda boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchilari bo'lib ishlaydilar. Shuningdek, Vengriyada bir nechta musiqa bilim yurtlari ham mavjud. Mazkur o'quv yurtlarida o'quvchilar umumta'lim fanlari bilan birga biror musiqa cholg'usini, solfedjio, garmoniya, guruhli kuylashni o'rganishadi. Gimnaziya bitiruvchilari o'qishni (ta'lim olish muddati 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan) Ferens List nomidagi Musiqa akademiyasida davom ettirishlari mumkin. 2 yillik kurslarda umumta'lim maktablari uchun solfedjio, qo'shiq, biror musiqa cholg'u ijrochiligi bo'yicha, mutaxassis o'qituvchi tayyorlanadi. 5 yillik ta'lim esa oliy malakali o'qituvchi va ijrochi artistlarni tayyorlaydi.

Bundan tashqari Vengriyada yuqori sinf musiqa o'qituvchilari tayyorlaydigan 4 yillik oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, bu yerda o'quvchilar muayyan musiqa ixtisosligi bilan birga ikkinchi mutaxassislik (masalan: musiqa va tarix, musiqa, til va boshqalar)ni egallaydilar.

Z.Koday tizimi Vengriyadagi musiqa ta'limi va tarbiyasining barcha bosqichlarida joriy etilmokda. Vengriya musiqashunos pedagoglarining tajribasi dunyoning ko'pgina malakatlarida jumladan, O'zbekistonda ham musiqashunos va pedagogika mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

Z.Koday tizimi turli milliy madaniy an'analarga muqim ravishda moslashib bormoqda va shuning uchun u jahonning aksariyat mamlakatlarida keng miqyosda ommalashib ketdi.

Vengriyada butun xalq musiqiy savodini chiqarish vazifasi muvaffaqiyat bilan hal etilmokda. Bunda, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim mamlakatlarida xor kuni o'tkaziladigan musiqa darslari katta ahamiyat kasb etmoqda.

Guruhli kuylash Vengriyada, chindan ham, umumxalq jarayonidir, bunga odamlarning musiqa savodxonligi, notaga qarab kuylash malakasi ta'sir ko'rsatmokda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Voprosy metodiki muzыkalnogo vospitaniya detey. M.: «Музыка», 2005
2. Vospitaniye muzыkoy. Moskva.: «Prosveteniye», 2011 g.
3. Kabalevskiy D.B. Kak rasskazyvat detyam o muzыke? M.: Prosveteniye, 2004.
4. Muzыkalnoye vospitaniye v shkole. Вып.19.: Sb.statey./Sostav. O.Apraksina. M.: Музыка, 2007.
5. D. Soipova Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi T.UzDK 2009y.



THE ROLE OF MUSIC AND SONGS IN THE STUDY OF ENGLISH

Haydarova Sarvinoz Zuhriddinovna

EFL teacher, Namangan Institute of Engineering and technology

E-mail address: sarvinozkhon2020@gmail.com

Abstract: The idea of using the means of emotional influence on students (fiction, poetry, songs, music, painting, artistic photography) in teaching foreign languages is not new. It is necessary to introduce into the practice of teaching materials that would ensure not only the mastery of a foreign language, but also contribute to the spiritual education and the formation of the aesthetic taste of the students.

Keywords: fiction, poetry, songs, music, painting, artistic photography

Introduction

Currently, the selection of teaching materials is increasingly based not on a purely linguistic, but a culture-oriented, communicative, personal approach, which makes it possible to use culturally valuable authentic foreign language materials for educational purposes, musical and song material. However, traditional forms of working with songs and poems in teaching a foreign language were mainly reduced to listening, reading and translating, analyzing, memorizing and reproducing them by heart. Over the past decade, new approaches to working with poetic and song material have begun to develop. Their essence is to use works of art as a means of teaching, expressing your own thoughts, based on your own life experience.

Of course, songs and poems themselves can be used to form phonetic, lexical, grammatical skills. However, they can be even more valuable if they are used creatively to bridge the distance between the pleasure of listening (singing) and the communicative use of the language.

The well-known teacher Ya.A. Comenius wrote that those who do not know music are like those who do not know literacy. In the schools of Ancient Greece, many texts were taught by singing, and in the elementary school of India, the alphabet and arithmetic is taught by singing even now. Together with the children, the teacher sings, as a rule, with enthusiasm and joy. Music and singing can provide invaluable assistance in learning a foreign language at school.

Let us formulate the methodological advantages of songs in teaching a foreign language: - Songs as one of the types of speech communication are a means of more durable assimilation and expansion vocabulary, as they include new words and expressions. In songs, familiar vocabulary is encountered in a new contextual environment, which helps to activate it. The songs often contain proper names, geographical names, realist countries of the studied language, poetic words. This contributes to the development of pupils' feelings of the language, knowledge of its stylistic features; - in songs, grammatical constructions are better absorbed and activated. In some countries, songs are published to teach the most common constructions. They are written in a modern rhythm, accompanied by a text with explanatory comments, as well as assignments (the purpose of which is to check understanding and discuss the content); - songs contribute to the improvement of foreign language pronunciation skills, the development of musical ear. It has been established that musical hearing, auditory attention and auditory control are closely related to the development of the articulatory apparatus.

Learning and performing short, simple melodic songs with happy repetitions helps to consolidate the correct articulation and pronunciation of sounds, the rules of phrasal stress, rhythm features, etc. a favorable psychological climate is created, psychological stress is reduced, language activity is activated, emotional tone is increased and interest in learning a foreign language is maintained.

Modern songs popular among young people can become an incentive for conversations and discussions. You can invite the students themselves to bring them to the lesson on the record. It is desirable that they be interesting in content and stimulate the children to further discussion, express their attitude to the song, its content and performance. Political songs can trigger a conversation about the international situation, about the social problems of society; lyric songs will be an occasion for conversation about relationships between people.

Topics for oral or written expression in classes with in-depth study of a foreign language, an additional means of presentation and activation of language material can be excerpts from musical works of different genres.



Conclusion

So, from the above, we can draw the following conclusions: The text of a poem or song, like prose, being created and functioning in society, primarily in its ideological and artistic quality, can be considered: as a source of objective information (the text is a mirror of the life and culture of the people); as a source of ideological and artistic information (text is a work of art); as a source of linguistic and linguistic information (the text is a representative of the linguistic and speech system). Songs in an English lesson revive teaching, evoke positive emotions, and serve to better assimilate lexical and grammatical material; the use of songs promotes children's interest in the study of the English language; songs intensify educational activities and are a way to expand and enrich the vocabulary of students; the use of songs in English lessons contributes to the development of musical ear, as well as aesthetic education of students. Using songs in English lessons enriches students with knowledge of a regional nature, makes it possible to learn about culture of the country whose language is being studied.

References:

1. Vereninova Zh.B. Song as a methodological technique for phonetic development of English middle sonants. / Foreign languages at school. -2000. —No5, pp. 26-3.
2. Nikitenko Z.N., Osiyanova O.M. On the problem of identifying the cultural component in the content of teaching English in primary school. // Foreign languages at school. -1993. —No3, pp. 14-17.
3. Nikitenko Z.N., Osiyanova O.M. The content of the national and cultural component in teaching English to primary schoolchildren. // Foreign languages at school. -1994. —No 5, pp. 17-19.



MUSIC AND LIFE

A student Nurbek Otakhonov

The fourth of course

The faculty of History

After named Berdakh of KSU

nurbekotaxonov7@gmail.com

Annotation: In this thesis (brief content) is given an information about to us which there are theories and others, besides that is said a basic meaning from it.

Key words: Music, melody, value, mood, life, world, humanity, family, society, meaning, to live, working, activity, solving of problems, theory, conclusion.

A MAIN PART. Music is the best melody which gives to our soul such good calm, joy, happiness, power and mood when we felt ourselves so badly or unhappy. At first music is counted which helps to us in order to work well and profitable besides that music gives us another such power as like God gave divine strength. The second music treats such sad and ill souls if who feels himself/herself music helps to it in order to get better. When music begins singing at that time all the world would wake up from sleep. We can say another way about the music it is always no important thing for us. Why? Sometimes because of more measures of music damages to our the nervous system but no improving.

In order to improve our music's position in all the world that we must develop the uzbek musics and spread it to everywhere. In that case we can say about uzbek nation's music and about its value in society and all the world. At first we should act to spread it everywhere and sing the uzbek musics in each place. We must act to say people about value the uzbek's musics and develop it more and more.

To live we are people in this life doing our works from our intentions and making from them we can do an useful something for ourselves and others' benefits. Doing that activity in that life we can show to the others our mankind quality and we may take morally good deed from God (Allah). But some people can not understand these works right and they begin to see them as harm. Exactly for this reason all the population of all over the world lives in such troublesome difficult life till these days not having a right happiness in this beautiful world. Until the 21 of century a humanity can not feel himself as like a happy family. That's why people have fought with each other for nothing. There is a nothing cause to fight with each other in fact. But in life humanity is made so by Allah on this way it has never helped to each other with anything benefit. If who does not believe to it that may do experiment in a real life. We are people whose is developed well thinking, seeing, feeling, hearing and speaking skills that can be the first in life on the all fields, another way I can say about it a life gives to us all the time benefits, results, abundance, nourishment and many same good others but we are people sometimes can not feel or see or don't want to recognize it or a true right.

Life is given factually only one time to people. In that case we are people must live right and meaningfully given to us life. Without doing mistake we can live in life if we act to the rules of beautiful life. Definitely in history humanity lived so much wild word-for-word for this reason at that time people lived just for themselves in order to be alive in this life. Passing with time humanity begins to feel this life more deeply than before. Finally coming to the 21 of century we all can feel our right happiness and joy in our life by given to us Allah that we began saying to thank to God. Nowadays we are living with using our reading, listening, speaking, learning, talking and many same others.

Youth generation is working about his/her future profession, to make career in life and living society where was given an attention so well by government. Our country has so much abundance, riches that's why we are youth must be worthy to these opportunities. In our country has such calm, peace, happiness, joy, value, confidence, honour, good opportunities for youth and population we especially should try to be active and attend so much in many events where was organized by active people.

To live right without doing mistakes we should act to the rules and try with our suitable answers. These rules we can make a new form that: a) at first government must act to the constitution rules not to demand acting to them from his people; b) to make easy to live of



people in society and life what government should develop present situation of people, besides that government must process to supply with working all people especially youth and bachelors in society; c) to make good projects which was announced in mass media where youth can find them and to make easy position of taking knowledge in offline order of youth who wants to be educated and the first in life that supporting exactly them by government not to make untruth; d) to produce a system of the right managing country by leaders the Republic of Uzbekistan where was pogrom money of budget by criminals that youth should know about it and they must make perspective project against to them; e) all an educated youth must gather together one place for one good goal and they have to process a system of our country in order to make easy to live, to study, to work and many same others in country.

Using literatures.

1. Ryukyu, Melesa (May 20, 2007). "Nearly 60 Years and Counting, Working on the Art of Theater". The New York Times. Retrieved June 16, 2010.
2. "Literature to Life: About". The American Place Theatre. Retrieved May 11, 2010.
3. Hodara, Susan (January 29, 2010). "Asking the Whole Country to Embrace a War Story". The New York Times. Retrieved June 16, 2010.
4. Boss, Suzie (June 1, 2010). "The Power of Performance: How Theater Can Teach Kids". Edutopia. The George Lucas Educational Foundation. Archived from the original on June 9, 2010. Retrieved June 16, 2010.
5. "Literature to Life Roster: Three Cups of Tea". The American Place Theatre. Retrieved May 11, 2010.
6. "2010 Gala Video". YouTube.com. Retrieved May 20, 2010.
7. "2010 Literature to Life Awards". The American Place Theatre. Retrieved May 11, 2010.
8. "2010 Literature to Life Awards". Broadway World. com. Retrieved May 19, 2010.



СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖНОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ, ИХ СУЩНОСТЬ И СПЕЦИФИКА

Зуева Арина Викторовна

Студентка 2 курса, бакалавриата
Нукусского государственного педагогического
института имени Ажинияза
(г. Нукус, Республика Каракалпакстан)
zuevaarina712@gmail.com

Аннотация: Как и любой вид искусства, музыкальная культура следует за эволюцией общества, а порой и вовсе опережает его развитие. Все это свидетельствует о ее особом месте в сфере молодежной культуры. Молодежной музыкальной культуре отведена важная, знаковая роль в самой сущности современного общества. К данным направлениям относятся просвещение и развлечение. Таким образом, можно смело утверждать о том, что современная музыкальная культура является отражением социума.

Ключевые слова: музыкальная культура, молодежь, музыкальные направления.

Музыка – это элемент творческой деятельности человека, который существует в культуре и культурной среде. Музыка выступает внешней причиной внутренних психологических переживаний, её можно сравнить с «каналом связи» между духовным опытом человечества и внутренним миром человека [4]. Культура в целом, как специфический способ организации и развития жизнедеятельности, отражает процесс материальной и духовной деятельности человека. Одной из основных составляющих духовной культуры человека является музыкальная культура, создание которой осуществляется через музыкальное искусство, которое постоянно порождает значительный интерес у молодого поколения и составляет непосредственную часть досуга и бытия нынешней молодежи. Следовательно, музыкальная культура — это многоуровневая система, которая состоит из музыкальных жанров и их видов, исполнительских и композиционных особенностей. В современном мире музыкальная культура является неотъемлемой частью жизни молодежи. Музыкальный вкус связан со всем процессом формирования структуры личности. Именно поэтому вкус служит мерилем художественной культуры человека, так как отражает уровень развития ее индивидуальности [6]. Обращение к музыкальной культуре молодёжи не случайно: именно музыкальная культура стала актуальной в процессе становления и развития молодого поколения, формирования внутреннего мира и ценностей личности.

Развитие современных направлений организованного культурного досуга предполагает совершенствование культурно-досуговой деятельности и появление ее новых форм, отвечающих запросам населения и трендам искусства [1]. Именно поэтому специалистам социально-культурной деятельности необходимо уделять особое внимание изучению и развитию такой значительной формы искусства, как музыкальная культура. При изучении молодежной музыкальной культуры следует отметить несколько направлений, а именно, выявить основные направления современной молодежной музыкальной культуры.

Первым и самым важным направлением можно считать просвещение и приобщение личности. Данные направления являются основным и ключевым аспектом в дальнейшем понимании музыкальной культуры. Средством просвещения и эстетического восприятия выступает классическая музыка. Классическая музыка наполняет быт и обыденность человека прекрасным, это своеобразное «лекарство для души». Музыка способна отражать все многообразие окружающего мира – от тончайших движений души человека, богатства ее эмоциональных состояний до острейших драматических социальных конфликтов и противоречий текущего времени, атмосферы эпох и столетий [5]. Так же музыка может быть направлена на развлечение и расслабление. Это второе важное направление музыкальной культуры. Развлекательная музыка — это способ развлечения, средство для разнообразия досуга, иногда музыка помогает просто физически расслабиться и отвлечься от всего окружающего, иногда является ситуативно уместным средством релакса. В основном, средством данного направления является популярная музыка, которая создается для массовой культуры. Такая музыка имеет общие черты, которые отражаются в ритме



и ее общем настроении. В основном это веселая и энергичная музыка, которая способна вытащить человека из депрессии и напрямую повлиять на его эмоциональное состояние. Поп-музыка традиционно охватывает самые широкие слои населения, но главные и наиболее непосредственные ее слушатели - дети и молодёжь [3]. Именно по этой причине деятелям культуры стоит особое внимание уделить качеству и эстетическим принципам, которые транслирует поп-музыка, поскольку ее основная аудитория – это будущее культурного развития общества.

Также у музыки есть свойство – повышать заряд энергии и восстанавливать физические силы. Музыка помогает отвлечься, погрузиться в приятное беззаботное состояние. В современной психотерапии даже появилось такое понятие, как «музыкотерапия». В таком психотерапевтическом методе музыка используется в качестве лечебного средства. Отсюда и следует само название «музыкотерапия», которое имеет греко-латинское происхождение и дословно переводится, как «лечение музыкой». В данном методе используется различная музыка и звуки природы, которые помогают подготовить эмоциональное состояние пациента к более сложным психотерапевтическим методам лечения, а порой и ограничиваются лишь вышеописанным методом – «музыкотерапией». Третьим современным направлением молодежной музыкальной культуры является - отражение социума. Именно современная музыка наиболее ярко отражает проблемы общества. Это направление выделяет проблемы времени и проблемы человека в настоящем времени, а потому она выступает как собеседник, ведет своеобразный диалог с обществом, осуществляя перцептивно-коммуникативный процесс. В данном направлении ключевыми являются такие музыкальные жанры, как рэп, рок, панк-рок и фолк. Такая музыкальная культура помогает разобраться молодежи в современной обстановке в обществе, помогает современному человеку быть ближе к народу. В наше время музыка стала отвечать за самовыражение и самопознание, является основным звеном в становлении личности и поиске личностью своего места в обществе.

В последние годы почти стерлось такое понятие как «фоновая музыка», так как музыка является носителем информации. Мелодия и текст передает чувства и переживания автора, и уже через них каждый слушатель находит ответы на волнующие его вопросы. Таким образом, современные музыкальные направления всецело влияют на молодежь, следовательно, и на будущее социума.

Список литературы:

1. Ершова О.В. Технологии реализации пластико-хореографических программ в контексте теории культурно-досуговой деятельности. Эл. Журнал – Педагогика искусства. 2017. - <http://www.art-education.ru/electronic-journal>
2. Медведь Э.И. Формирование музыкально-эстетической культуры личности в отечественном и зарубежном педагогическом опыте / Э. И. Медведь // Современные наукоемкие технологии. – 2017. – № 2. – С. 126–130.
3. Портников В.И. Некоторые аспекты формирования музыкально-художественного вкуса детей и молодежи / В. И. Портников // Инновационные процессы в научной среде : сб. ст. Междун. науч. – практ. конф. (Пермь, 25 сент. 2015 г.) / [отв. ред. : А. А. Сукиасян]. – Уфа, 2015. – С. 252–255.
4. Серебрякова Е.А Влияние музыки на психофизическое состояние человека. Вестник Брянского государственного университета. Б., 2014. – С. 23
5. Тихоновская Г.С Сценарно-режиссерские основы технологии культурно-досуговых программ. Учебник. М., 2014. С. 43

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(15-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
